

MUMTOZ ADABIYOTIMIDA TAZKIRACHILIK AN'ANASI

Amonov Ulug'murod,
BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif sharq mumtoz adabiyoti - tanqidchiligidagi tazkira janrining paydo bo'lishi jarayoni, taraqqiyoti; arab, fors-tojik, o'zbek adiblarining tazkiralari, ularning bir-biriga ta'siri, farqli tomonlari haqida; tazkiralarning xususiyatiga ko'ra tasnifi; Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi uning tazkiranachilikda yangi an'anani boshlab bergani haqida; A.Navoiy tazkirasi asosida yaratilgan tazkiralari, ularning mualliflari haqida; Hasan Xoja Nisoriy, Maleho Samarkandiy, Mutrib haqida; Ayniqsa, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro ilmiy-adabiy muhitida tazkiranavislari, ularning tazkiralari va asarlarining xususiyatlari haqida; Ne'matulloh Muhtaram, Sadr Ziyo, Sadreddin Ayniylarning tazkiranavislari, munaqqidlik faoliyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: tazkira, tazkiranachilik, adabiyot tarixi, adabiy tanqidchilik, jadid adabiyoti, matnshunoslik, manbashunoslik.

ТРАДИЦИЯ ТАЗКИРАПИСАНИЯ В НАШЕЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Амонов Улугмурод,
Доцент БухГПИ, доктор философии по филологическим наукам.

Аннотация: В данной статье автор описывает процесс возникновения и развития жанра тазкира в восточной классической литературе-критике; о тазкирах арабских, персидско-таджикских и узбекских писателей, их влиянии друг на друга и различиях; классификация тазкир по их характеристикам; о тазкире Алишера Навои «Маджолис ун-нафоис», которая дала ход новой традиции в тазкираписании; о тазкирах, созданных на основе тазкиры А. Навои, об их авторах; О Хасане Ходже Нисари, Малехо Самарканди, Мутрибе; особенно о тазкираписании научной и литературной среды Бухары конца XIX - начала XX века, характеристики их тазкиров и произведений; обсуждается тазкираписательская и критическая деятельность Нематуллы Мухтарам, Садра Зиё и Садриддина Айни.

Ключевые слова: тазкира, тазкираписание, история литературы, литературная критика, джадидская литература, текстоведение, источники-коведение.

TRADITION OF TAZKI WRITING IN OUR CLASSICAL LITERATURE

Amonov Ulugmurod,
Associate Professor BukhSPI, Doctor of Philosophy in Philological Sciences.

Annotation: In this article, the author describes the process of emergence and development of the tazkira genre in Eastern classical literature-criticism; about tazkirs of Arab, Persian-Tajik and Uzbek writers, their influence on each other and differences; classification of tazkirs according to their characteristics; about Alisher Navoi's tazkira "Majolis un-nafois", which gave rise to a new tradition in tazki writing; about tazkiras created on the basis of A. Navoi's tazkiras, about their authors; About Hassan Khoja Nisari, Maleho Samarkandi, Mutrib; especially about tazkirs and the scientific and literary environment of Bukhara at the end of the 19th - early 20th centuries, characteristics of their tazkirs and works; The tazki writing and critical activities of Nematullah Mukhtaram, Sadr Ziyo and Sadreddin Aini are discussed.

Key words: tazkira, tazkira writing, literary history, literary criticism, jadid literature, textual criticism, source studies.

Sharq adabiyoti tarixida tazkira va tazkiranachilik an'anasi uzoq tarixga ega. Shu o'rinda tazkiraning lug'aviy va atama jihatdan ma'nolarini oydinlashtirib olsak: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasida: tazkiraning lug'aviy ma'nosi – zikr etmoq, eslatib o'tmoq deb aytildi. Mazkur manbada tazkira atama jihatdan quyidagicha izohlangan: "Tazkira – Yaqin va O'rta Sharqda adabiyotshunoslik asari. Shoirlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot, asarlaridan parchalar keltirilgan antalogiya. Shoirlar haqidagi ma'lumotlar alohida kichik maqola – fikrlardan iborat bo'ladi. Unda shoirlarning ismi, taxallusi, qayerdanligi, ijodi, tabiatdagi xarakterli xususiyat, qay darajada shuhrat topganligi, she'rlaridan bir yoki

ikki bayt namuna, shoirga tazkira muallifning ijobjiy yoki tanqidiy munosabati, shoir umrining oxiri (vafot etgan bo‘lsa, dafn qilingan joyi) bayon etiladi”, -deb ma’lumot beriladi.

Olimlar tomonidan ham tazkira va tazkirachilik tarixi borasida jiddiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan o‘zbek klassik adabiyotining zahmatkash tadqiqotchisi, adabiyotshunos olim B. Valixo‘jayev tazkira va tazkirachilik an’anasini o‘rganib, tazkira haqida shunday deydi: “Tazkira arabcha zikr so‘zidan tuzilgan bo‘lib, esdalik daftari ma’nosini anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda, tazkira ma’lum davrda bo‘lib o‘tgan yoki muallifning o‘z boshidan kechirgan hodisa voqealarni, hamda mazkur shaxslar hayoti haqidaagi ma’lumotlarni qayd qiluvchi asardir”.

Yuqoridagi har ikkala ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, tazkira qaysi asrlardan yaratilishidan qat’i nazar adaabiy hayot manzarasini tasvirlaydi va uni ma’lum darajada faktlar asosida tahlil qiladi.

Adabiyot tariximizga nazar tashlab, tazkira janrining vujudga kelishi sabablarini o‘rganib chiqsak.

Qadim tariximizdan boshlab, bosmaxonalarning yo‘qligi tufayli kitoblar xattot tomonidan qo‘lda ko‘chirilib ko‘paytirilgan. Shuning uchun kitoblarning bahosi nihoyatda qimmat edi. Bunga esa hammaning iqtisodiy imkoniyatlari yetmas edi. Shu sababli baiiy adabiyot ixlosmand kishilar o‘zlarini yoqtirgan shoirlarning asarlaridan namunalar ko‘chirib, to‘plamlarga kiritganlar. Buning natijasida dastlab majmua – bayozlar yaratila boshlangan. Bu to‘plamlarda shoirlarning asarlari kiritilgan bo‘lsa ham, ular haqidagi ma’lumotlar: ismi, taxallusi, tavallud topgan yurti, ayni damda yashab turgan joyi ushbu bayozlarda umuman ko‘rsatilmagan. Vaqt o‘tishi bilan bunday to‘plamlar mukammalasha borib, shoirlarning ismi va hayotidan lavhalar kiritilganlik tazkiralar edi.

Dastlabki tazkiralar arab tilida IX-X asrda yaratilgan tazkiralar sifatida Abu Abdulloh ibn Sallom al-Jumahiyning “Taboqat ash-shuaro”sini, Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli asr” asarlarini aytish mumkin.

XIII asrdan boshlab O‘rta Osiyo xalqlari adabiyotshunosligida ham tazkiralar maydonga kela boshladi. Shunday tazkiralardan Muhammad Avfiy Buxoriyning fors-tojik tilida yozgan “Lubob ul-albob” (“Mg‘izlar mag‘zi”) tazkirasıdir. [9.21. 14. II J. 112-113.]

Muhammad Avfiy mazkur tazkirasini 1221-yilda Hindistonda yozgan. Muallif asarida X-XIII asrlarda yashagan 300 shoirning tarjimai holi, ijodi haqida ma’lumotlar to‘plagan va kiritgan. Bu asari bilan Muhammad Avfiy tazkirachilik an’anasiga yangi tarixiy yo‘nalishga asos soldi.

Tazkira va tazkirachilik rivojlana borib, turli-tuman sohalarni qamrab ola boshladi. Adabiyotshunos olim Botirxon Valixo‘jayev “Tazkiralar hayotning turli-tuman sohalarni qamrab olishi nuqtai-nazaridan uni keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Keng ma’nodagi tazkira tarix, falsafa va san’atning turli sohalariga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkin. Jumladan, Farididun Attorning “Tazkirat ul-avliyo”,* G‘ulom Muhammad Dehlaviyning “Tazkirai Xushnavison”, Sadri Ziyoning “Tazkirayi humaqa”** kabi asarlar keng ma’nodagi tazkiralardir. Tor ma’nodagi tazkira adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi, adabiyot va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotshunoslik asaridir”, – deb yozadi.[9.20]

Biz shu xildagi tazkiralar biri Sadriddin Ayniyning “Namunayı adabiyoti tojik” asari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Demak, yuqorida zikr qilib o‘tilgan Muhammad Avfiyning “Lubob ul-ahbab” tazkirasi tor ma’nodagi tazkiralardan sanaladi. Shunday nisbatan tor sohani qamrab olgan tazkiralardan biri. 1487-yilda tartib berilgan Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”sidir. [11.10 том. 503-bet. 13.5 том.228.] Mazkur majmua Alisher Navoiyning bevosita yordami bilan vujudga keldi. Davlatshoh Samarqandiyning o‘zi “Tazkirat ush-shuaro”ni A. Navoiyga bag‘ishlab yozgani buning yorqin dalilidir. Tazkirada 10-15-asrlarda yashab ijod qilgan 151 nafar fors-tojik, arab va turk adiblarining tarjimai holi va asarlaridan namunalar keltiriladi.

Alisher Navoiydek nozik ta’b insonning maqtoviga sazovor bo‘ladigan asar yaratish ko‘p shoirlarga ham nasib etavermas edi. G‘azal mulkining sultonı o‘zining “Majolis un-nafois” asarida Davlatshoh Samarqandiy va uning tazkirası haqida shunday so‘zlarni, e’tirofni, yozadi: “Amir Davlatshohkim Xuroson mulkining asil amirzodalari orasida fazl va donnish zevari bila bahramand, faxr va qanoat toji bila sarbalanddur, ham sultonı sohibqiron otig‘a “Tazkirat ush-shuaro” otlig‘ kitob bitibdur, voqeal base zahmat tortibdur va bu toifani yaxshi jam qilibdur”. [4.6 bet]

Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy Davlatshoh Samarqandiyini chuqur hurmat qilib, uning tazkirasiga yuqori baho beradi. Xuddi shu asrda Movarounnahr va Xurosonda tazkirachilik an’anasiga tarixiy-zamonaviy va zamondoshlarga bag‘ishlangan tazkiralardan kirib keldi. Bu an’anaga asos solgan olim g‘azal mulkining sultonı Alisher Navoiy edi. Hazratning “Majolisun-nafois”i nafaqat yangi an’anaga asos

solgan asar bo‘lib qolmay, balki turkey tilda yaratilgan birinchi tazkira ham edi. Mazkur asar ko‘pgina xususiyatlari bilan keyingi XVI-XIX asrlarda o‘zbek, tojik, fors tilida yaratilgan tazkiralarga asos bo‘ldi. Biz shu o‘rinda XV asrga kelib, ya’ni A.Navoiy tazkirasini yozganidan so‘ng tazkiranachilikning ikki yo‘nalishiga bo‘linganini ko‘rishimiz mumkin. Birinchisi, tarixiy-zamonaviy yo‘nalishdagi tazkiralari; ikkinchisi, zamondoshlarga bag‘ishlangan tazkiralari.

Olimlarimizning fikrlariga qaraganda, tarixiy-zamonaviy yo‘nalishda yozilgan tazkiralardan ko‘ra, zamondoshlarga bag‘ishlangan tazkiralarning ahamiyati kattaroq. Jumladan, “ Lubobul-albob ” uch asrlar davomida yashagan 300 shoir to‘g‘risida ma’lumot bersa, Davlatshoh Samarqandiyining “ Tazkira ush-shuaroi 5 asr davomida yashagan 151 shoir haqida ma’lumot beradi. Bu degani tazkira nihoyatda keng davrni qamrab olganligi sababli ma’lumotlarning ishonchliligiga putur etadi. Buning ustiga bu tazkiralarga mashhur shoirlar kiritilgan bo‘lib, zamondosh shoirlar esa kirmay qolgan.

Zamondoshlarga bag‘ishlangan “Majolisun-nafois” tazqirasida Alisher Navoiy bu kamchiliklarni tuzatgan. Fikrimizning dalili sifatida “ Majolis un-nafois ” ning kirish qismidan iqtibos keltiramiz: “ Shikasta xotirg‘a va siniq ko‘ngulga andoq keldikim, bir necha varaq bitilgay va bu asr shuarosi bilan bu davr zurafosi otin anda sabt etilgay, to bu niyozmandlar ham burung‘i shuaro akobiri zaylida mazkur bo‘lg‘aylar va bu payravlar ham ul rahbarlar xaylig‘a qo‘shilg‘aylar. Bu jihatdin Sulton Sohibqironning Humoyun valodatlari zamonidan ro‘z afzun davlatlari davronig‘achakim qiyomatqacha barqaror va olam inqirozig‘igacha poydor bo‘lg‘ay, uncha faqir eshitibman, ammo xizmatlarig‘a yetmayman va ulcha xizmatlarig‘a yetibman, ammo holo bu fano dorul g‘ururidin baqo dorus-sururig‘a intiqom qilibdurlar va ulcha holo bu farrux zamonda namoyandadurlar ul hazratning zoti malakiy sifatlig‘a mauhi saroyandadurlar jam qilingay va qaysining namoyishi tab’idin biror nima nishona yo‘sunluq yozilg‘ay.” (“Majolis un-nafois”, 7-bet)

Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilganidek, hazarat Alisher .Navoiy bugungi kunda ilmiy ahamiyati yuksak bu ajoyib asarini o‘z zamondoshlariga bag‘ishladi. Mazkur tazkirada 459 shoir haqida ma’lumotlar berilgan. Izlanishlardan shu narsa aniqlanganki, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” an’analari nafaqat bizda, balki Yaqin va O‘rta Sharqda, Kavkazda ham davom ettirilgan ekan. Shunday tazkiralari sirasiga Sodiqbek Sodiqiyining “Majma ul-xavos”, Som Mirzoning “Tuhfa Somiy”, Lutfalibekning “Otashkadai Ozar” asarlarini qo‘shish mumkin.

Bular qatoridan Sodiqiy Kitobdorning (1553-1612-yillar) “Majma ul-havas” tazkirasini chig‘atoy tilda, ya’ni eski o‘zbek tilida yozilgani bilan ajralib turadi.

“Majmoul-havos”ni 1948-yil Tabriz universitetining doktori Abdurrasul Xayompur forschaga tarjima qilib asli bilan birgalikda nashr etadi.

Sodiqiy o‘z tazkirasini “Majolis un-nafois” tazkirasiga muvofiq sakkiz bobdan tuzganligi uning A.Navoiy boshlab bergen an’analarni davom etirganligidan dalolat beradi. Sodiqiy Kitobdor tazkirasining fazilati shundaki, bu asar orqali qadimiy o‘zbek-turkiy she’riyat adiblarining Eron, Ozarbayjon, Mavorounnahr vakillari bilan birgalikda Hindistonidagi vakillarini ham ko‘ramiz. Jumladan, kitobda Humoyun podshoh haqida shunday deyiladi:

“Humoyun podshoh nihoyatdin mutajoviz karimul tab’ va sahopesha va xushsaliqa podshoh erdi. Abulg‘izi Sulton Husay Mirzadin so‘ngra chig‘atoy podshohlaridan Humoyun podshohdek xushtab’ podshoh oz voqe’ bo‘lubtur. Qarindoshi Komron Mirzodin hazimat qilub, shohi jannatmakon ziloli jalolig‘a malja’ bo‘ldi. Qizilbosh askari nusrat farjomi imdodi bila xasmni (raqibini) mag‘lub qilub, Hind abvobin maftuh (fath) qila oldilar. Tab’i she’rda o‘qush muloyim voqe’ bo‘lubtur. Bu ikki turkiy baytining ko‘p shuhrati bor va mashhur bo‘lubdirkim:

G‘ariblig‘ g‘amidin mehnat-u malolim bor, Bu g‘amidin o‘limg‘a yetdum, g‘arib holim bor. Visoli davlatidin ayrilubman mahzun, Tirikmen-u, bu tiriklikdin infiolim bor. [18.4 t.341.]

Mazkur satrlardan ko‘rinib turibdiki, Sodiqiy tazkirasida shoirlar haqida ma’lumot berish va ularning asarlaridan namuna keltirishda “Majolisun-nafois” uslubiga ergashadi.

Haqiqatdan ham, tazkirada yozilganidek, Humoyun Mirzo Hindistonning hukumdori edi. U Sherxon Surdan yengilib, Qandahorga chekinadi, lekin bu yerda ham uning ukasi Komron Mirzo tinch qo‘ymaydi. Natijada u Eron shohi Tahmsap huzuriga borib, uning yordami bilan qaytadan Hindiston taxtini qo‘lga kiritadi. Ushbu to‘rtlik Humoyunning nozik va shoirona bir qalb hamda hassos bir did egasi bo‘lganidan dalolat beradi. She’r mazmuniga ko‘ra Humoyun bu to‘rtlikni Hindiston podshohligidan quvilib, ukasi Komron Mirzo ta’qibidan qochib, Eronda boshipana topgan mahalda yozgan deb xulosa chiqarish mumkin. Demak, tazkiranadagi bunday ma’lumotlar tarixning ba’zi bir bo‘shliqlarini to‘ldirishga yordam

beradi. Shu kungacha Humoyun mirzoning faqat fors-tojik tilida yozgan she'rlari ma'lum bo'lib, turkiy tildagi she'rlari noma'lum edi. Tazkiralar qaysi asrdan yaratilishidan qat'iy nazar, o'sha davr madaniyatini, tarixini tazkiranavislar tafakkuri orqali o'zida aks ettiради.

Keyingi asrda yashagan tazkiranavis adiblar Muhammad Avfiy Buxoriy va Alisher Navoiy an'analarini davom ettirganlarini ko'ramiz. 16-asrning ikkinchi yarmida ko'zga ko'rigan buxorolik adiblardan Hasan Xo'ja Nisoriy "Muzakkir ul ahbob" tazkirasini "Majolis un-nafois" yo'nalishida yozdi. "Ensiklopediyai adabiyot va sa'nat tojik" (5-tom. 297-bet)da ko'rsatilishicha, adib bu asarni 1566-yilda yozgan. Asar muqaddima, to'rt bob va xotimadan iborat. Bu kitobda Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois" va Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuar" sida kiritilmagan, yoxud keyingi yillarda yetishib chiqqan 275 nafar qalam sohiblari haqida ma'lumot jamlangan. Ko'rinib turibdiki, asar Shaybonilar sulolasining eng gullagan davrida, aniqroq qilib aystsak, Abdulloxon hukmronlik qilgan yillarda yashagan shoirlar haqida qimmatli ma'lumot beradi. Masalan, Mushfiqiy, Safoiy, Muhammad Bade' Hofiz Mirak, Solehi, Karminagiy, Donishiy, Arslon, Sahliy va boshqalar haqida keltirilgan ma'lumotlar o'sha davr shoirlarining hayoti va ijodini o'rganishda juda qimmatlidir.

XVI asr oxiri XVII asrning boshlaridan boshlab tazkiranavislik an'anasini rivojlanib, A. Navoiyning "Majolis un-nafois"i uslubida bir-birini takrorlanmaydigan, mustaqil tazkiralilar maydonga kela boshladi. Bular Mutribi Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuar" si hamda Maleho Samarqandiyning "Muzakkir-ul-ashob" nomli tazkiralardir. Mutribiy "Tazkirat shuar" ("Shoirlar tazkiras") sini 1605-yilda Samarqandda tuzgan. Unga 16-asrning ikkinchi yarmi va 17-asrning birinchi yarmida Fargona, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Hindiston, Afg'oniston va Eronda yashab ijod etgan 320 dan ortiq shoir ijodidan namunalar kiritilgan. Asarda shoirlarning ismi, taxallusi abjad (hisobida) sistemasida berilgan. "Tazkirat ush-shuar"da bizga Abdurahmon Mushfiqiy, Nisoriy, Bedili Samarqandiy kabi talantli shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. [11.10.503 b]

Mutribiy ustozি Hasan Xoja Nisoriy an'anasini davom ettirib, 1625-yilda ikkinchi tazkirasini tuzdi. Asarning nomi "Nusxai zeboi Jahongir" bo'lib, Hindiston podshohi, Boburning aberasi Jahongirga bag'ishlab yozilgan. Mutribiy o'z zamonasining yetuk bilimdonlaridan sanalgan. U ham adabiyotshunos, ham shoir, ham musiqashunos bo'lган. Mutribiy o'zining ilmli va iste'dodli bo'lib yetishuvida o'zining ustozи Hasan Xoja Nisoriyни nihoyatda hurmat bilan tilga oladi, she'riyat va aruz qonun-qoidalarini o'rgatgan Nisoriy nomini "Tazkirat ush-shuar"ning bir necha o'rniда eslatib o'tadi:

1. "Har chiki kamina (ya'ni Mutribiy A.U.) dar funun she'r omo'xta, namunayest, ki az ruftu ro'bi bazmgohi on (ya'ni Xasanxoja Nisoriy) olijahon". (Mazmuni: She'riyat ilmida nimani o'rgangan bo'lsam bu Hasanxoja Nisoriy tufaylidandir.).

2. "Faqir dar xidmati maxdumi Hasanxoja Nisory aruz mexonam". (Mazmuni: Men Hasanxoja Nisoriydan aruzni o'rganar edim.) [9.154 b].

Bu fikrlardan shogirdning ustozga bo'lган hurmatini, e'tirofini ko'ramiz. Yana shu narsani ta'kidlash kerakki, mazkur davrda she'riyat ilmi nihoyatda rivojlangan. Bu asrlar Buxoro va Samarqand madaniyatining yuksakka ko'tarilgan so'nggi yillari edi. Tarixdan ma'lumki, XVI asrda Movarounnahr hukmdori Abdullaxon Buxoroda o'z nomiga madrasa qurdiradi. Unga Shayx ul-ulamo (Rektor U.A.) tanlash uchun 1587-yilda (ushbu madrasada) ilmiy munozara chaqiradi. Buxorolik mudarrislardan Mufsar Mavlaviy Sadriddin bilan Sherozdan kelgan mehmon Mirzojon mudarris orasida diniy-ilmiy munozara bo'lib o'tadi. Byxorolik mudarris ta'lim dargohlarida diniy ilm bilan dunyoviy ilmni ham keng o'qitilishishi lozimligini aytadi. Sherozlik mudarris esa ilohiyot ilmlarini o'qitish tarafdori bo'ladi. Xon oldidagi bu munozara Mirzojonni xon madrasasiga Shay xul-ulamo bo'lishi bilan yakun topadi. Mirzojon shoshilinch ravishda madrasa dars dasturidan dunyoviy fanlarni chiqarib tashladi. Uzoqni ko'ra bilmaslik natijasida qilingan bunday tadbir nafaqat boshqa madrasalar uchun, balki butun Turkiston madrasalari uchun namuna bo'ldi. Shu paytdan boshlab Buxoro madrasalari o'sha paytdagi eng olyi dargoh, hozirgi Universitetlik huquqlarini yo'qotib bordi. Bu nafaqat rivojlanayotgan ilm fanni balki, jamiyatning, iqtisodning inqiroziga sabab bo'ldi.

Shunday bo'lsa-da xalqning jonfido farzandlari o'z davrining ilm fanini egallab, rivojlantirishga, adabiy muhitning eng sara durdonalarini to'plab kelajak avlodga qoldirishga harakat qildilar. XVII asrning ikkinchi yarmida yaratilgan tazkiralardan biri shu davrning allomalaridan bo'lmish Muhammad Bade' Maleho Samarqandiyning "Muzokir ul-ashob" asaridir. Zamonasining ilmlarini o'rgangan shoir va adabiyotshunos sifatida shuhrat qozongan Maleho Samarqandiy tazkirasini 1682-1692-yillar orasida yozib tugatgan.

“Muzokir ul-as’hob” ikki qism (asosiy va qo’shimcha) dan iborat bo‘lib, ikki yuzga yaqin zamondosh shoirlar haqida ma’lumot beradi. Malehoning tazkirasi zamondosh shoirlar zikriga bag‘ishlangan kitob bo‘lishi bilan ham o‘zbek shoiri va adabiyotshunosi Mir Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasiga yaqin turuvchi asardir. Maleho Samarqandiyning “Muzokir ul-as’hob” tazkirasi ba’zi bir xususiyatlari bilan boshqa tazkiralardan farq qiladi. Shoirlar haqida keltirilgan hamma ma’lumotlar ishonchlidir. Chunki u ko‘p shoirlar bilan hamsuhbat bo‘lib, ularning asarlaridan xabardor bo‘lgan.

Maleho tazkirasining yana bir xususiyati shundaki, unda shoirlar arab alifbosi tartibida berilgan bo‘lib, har bir harf bilan boshlanadigan bo‘limning oldidan kichik debocha beriladi. Bu debochalarda shu qismning maqsadi va u kimlarning zikriga bag‘ishlangani yozilgan. Maleho Samarqandiyning ijodkorlarni bunday tartib bilan berishi 17-asrgacha fors-tojik va o‘zbek tazkirachiligidagi yangilik edi.

O‘rtal Osiyo tarixida XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib favqulodda dahshatli qonli tarixiy voqealar bo‘lib o‘tdi-ki, qadimdan shon-shuhrat dunyoga yoyilgan xalqimiz Chor Rossiyasining mustamlakasiga aylanib qoldi. Mavjud uch xonlikning birini – Qo‘qon xonligini tarix sahnasidan yo‘q bo‘lishi va qolgan ikki xonlikning davlatchilik haqhuquqi nazorat ostiga olishishi bilan tugagan bu tarixiy jarayon, o‘sha davr adabiy muhitiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, albatta. Bu davrlarda yaratilgan tazkiralarni o‘zbek va tojik adabiy-tanqidiy qarashlari tarixini o‘rganishi hamda uni yoritishi bilan birgalikda “yerli aholini” o‘tmish adabiy merosi bilan tanishtiradi.

Biz bu davrda yaratilgan tazkiralarni soni o‘ndan ortiq ekanini bilib oldik. Bular Qori Rahmatullo Vozehnning “Tuhfat ul-ahbobi tazkirat ul-as’hob”, Abdillazim Shar’iyning “Tazkirat ush-shuaro”, Mirsiddiq Hashmatning “Tazkirat ush-shuaro”, Afzal Pirmastitning “Afzal ut-tazkor fi zikr ush-shuaro val-ash’or”, Muhammad Sharif Sadr Ziyoning “Tazkor ul-ash’or”, Hoji Ne’matullo Muhtaramning “Tatkirayi ush-shuaro” va boshqa ko‘plab tazkiralarni sanab o‘tish mumkin. Biz shu tazkiralardan Ne’matullo Muhtaram va Sadr Ziyo tazkiralari qisqagina to‘xtalib o‘tmoqchimiz, chunki bu mualliflarning hayoti va ularning asarlari olimlarimiz tomonidan hali o‘rganilmagan desak, xato qilmaymiz.

Buxoro adabiy muhitida o‘zining she’rlaridan ko‘ra tazkirasini bilan mashhur bo‘lgan adiblardan biri Xo‘ja Ne’matullo Muhtaramdir. Muhtaram 1880-yillarda Buxoro shahrida tug‘ilgan. Amir Abdulahad zamonida turli mansablarda ishlaganligi haqida manbalardan ma’lumotlar yetib kelgan. (“Namunai adabiyoti tojik” 473-478 betlar). Muhtaramdan bizga qadar yetib kelgan adabiy-tanqidiy merosi “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasini bo‘lib, asar 1908-yilda yozilgan. Biz Muhtaramning tazkirasini bilan tanishib chiqib, bunda asosan, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan shoirlar va ularning asarlari haqida ma’lumot jamlanganini ko‘ramiz. Tazkirada Ibrat, Oshiqiy, Nazmiy, Munzim, Sahbo, Shoiq, Afzallar haqida qimmatli xabarlar berilganki, bu mazkur adiblarning hayoti va ijodini o‘rganishda nihoyatda ahamiyatlidir.

Muhtaramning tazkirasini yaxshi bir xususiyati shundaki g‘azal, ruboiy, qasida, fard, muxammaslarga o‘zining fikrlarini bildirib o‘tadi. Jumladan, Mullo Nazrullo Lutfi Buxoriyning

Biyo ey rashk xurshid va qamar ruxsor zeboyat, Chaman az kamtarin xudam ro‘y jannat inshoyat.

Mazmuni: Kel, xurshid va qamar rashk qiluvchi go‘zal zebo,

Men kamtarindan chaman jannat yuzi paydo.

matlali g‘azalini keltirib, o‘z davrining badiyati jihatdan yuksak g‘azaldir deb baho beradi.

Bundan tashqari u hamkasbi bo‘lgan Qozi Sadr Ziyo haqida tazkirasida shunday yozadi:

“... Ziyo-xud tahsili ulumi diniro tamoman dar nazdi padari xud namud ...” (Muhtaram “Tazkirat ush-shuaro”, 215 b). Mazmuni: “Ziyo diniy ilmlarni otasining rahnamoligida oldi...” deb ma’lumot keltiradi.

Bizga ma’lumki, qozi bo‘lish uchun diniy ilmlarni mukammal egallash shart bo‘lgan. Muhtaramning bu ma’lumotidan bizga shu narsa oydinlashadiki, Abdushukur Oyat (Sadr Ziyoning otasi A.U.)ning shaxsan o‘zi o‘g‘liga diniy ilmdan dars bergen ekan.

Yana shuni qayd etish lozimki, ilmiy izlanishlar natijasida Muhtaram tazkirasida Sadr Ziyoning g‘azallaridan tashqari, Amir Abdulahadga shikoyat tarzida yozgan qasidasi ham borligi aniqlandi. Mazkur qasida jami 45 bayt (90 misra) dan iborat bo‘lib, matni ”Tazkirat ush-shuaro”. (Xo‘ja Ne’matullo Muhtaram. Nashriyoti “Donish”: –1976-y. 214-219-betlar) da to‘lamligicha keltirilgan. Sadr Ziyoning mohir so‘z san’atkorligi tufayli qasidada zamonasidagi kamchiliklar amirga shikoyat tariqasida bayon qilinadi.

Dar jahon qudratnishon afsungar, Dar in zamon nahu sat’ayon dun parvar. Chi jurho ki nakardast bo man in gardun, Che zulmho ki nakardast bo man in axtar, Namuda paykari man mahzun hazor ozar.

Namuda sinai man mijmar hazor ozar, Dil fikor maro kard chun qafas sad choktan nazor maro kard hamchuu xas log‘ar.... Hamisha ham sar taxti tu bod joh jalol, Hamisha hamroh baxt tu bod fath-u zafar.

Sadriddin Ayniy o‘zining “Namunai adabiyoti tojik” tazkirasida Muhtaram va uning tazkirasi haqida ma’lumotlarni qayd qilib, “Tazkirat ush-shuar”ga kiritilgan shoirlarning ijodidan 5000 bayt she’ri jamlanganini aytadi [6. 471-472].

Hozirgi kunda “Tazkirat-ush-shuar”ning ikkita qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib birinchi nusxasi Tojikiston Fanlar Akademiyasining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Bu kitob Muhtaramning o‘zi tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, 125 shoirning hayoti va ijodi arab alifbosi tartibida “alif”dan “qof”gacha berilgan. Ikkinchi nusxasi esa O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Bu kitob 1923-yilda Buxoroda Sadr Ziyo tomonidan ko‘chirilgan. Asarning oxirgi qismida qo‘shimchalar kiritilib shoirlar soni 175 taga yetkazilgan. [13.299]

Sadriddin Ayniy “Namunai adabiyoti tojik” tazkirasida: “Xo‘ja Ne’matulloh Muhtaram 1920-yilning sentyabr oyida inqilob harbiylari tomonidan o‘ldirildi”, – deb ma’lumot beradi.

Ko‘rinib turibdiki, Xo‘ja Nematulloh Muhtaramning tazkirasi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan o‘zbek, tojik adiblarini hayoti va ijodini o‘rganish uchun qimmatli manbadir. Bu adibning hayoti va ijodini hali ochilmagan qo‘riq desak, xato qilmaymiz. Faqtgina 1975-yilda Dushanbe shahrining “Donish” nashriyotida Asg‘ar Jonfido tomonidan “Tazkira-ush-shuar”ning qiyosiy matni tayorlanib nashr ettirilgan xolos.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Buxoro davlati Chor Rossiyanining qaram o‘lkalaridan biriga aylantirilgan edi. Albatta, bunday holat xalqning peshqadam vakillariga ta’sir qilmasdan qolmas edi. Ular ham Buxoroni, Turkistonni har tomonlama taraqqiyotini istar edilar. Buxoroning ana shunday farzandlaridan biri Sharifjon Maxdum Sadr Ziyodir.

Sadr Ziyo 1867-yil 2-fevralda Buxoro amirligining Ziyouddindagi qozisi Abdushukur Oyat oilasiga dunyoga kelgan. Uning otasi Abdushukur zamonasining ma’rifatparvar kishilaridan bo‘lib, Oyat taxallusi bilan she’rlar yozgan. Sadr Ziyo avval boshlang‘ich mакtabda, so‘ngra madrasada o‘qib zamonasining ilmlи kishilaridan biriga aylandi. Sadriddin Ayniyning “Qisqacha tarjimayi holim” hamda “Esdaliklar” asarlari bilan tanishib chiqib shu xulosaga keldikki, u (Sharifjon Maxdum) madrasada o‘qib yurgan kezlaridayoq madrasanining ijodkor talabalaridan anchasini o‘z atrofiga to‘plagab, o‘ziga xos adabiy guruh tuzgan ekan. Bular yosh adabiyotshunos va shoirlar bo‘lib, bir qanchasi xalq orasida asarlari bilan endigina tanilayotganligini ko‘ramiz. Jumladan, Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Hayratlarni aytishimiz mumkin.

Sadr Ziyo Buxoro ilm ahlining peshqadam vakillari: Abdulkajid Zufunun, Mirzo Nazrulloh Lutfiy, Yahyoxo‘ja, Sodiqxo‘ja, Gulshaniy, Homidbeki Homid, Abdulxo‘ja, Tahsin, Qori Abdulkarim Ofarin (Do‘zaxiy), Mirzo Azimiyy, Somi Bo‘stoniy, Mullo Raxmat sartarosh, Azizxo‘jai Azizlar bilan yig‘ilishib, turli mavzularda suhbatlashar edilar.

Sharifjon Maxdumning ustida bo‘lib o‘tadigan bu yig‘ilishlarda asosan adabiyot masalalari, zamonadagi kamchiliklar, mansabdorlarning kirdikorlari muhokama qilinar edi.

Shu o‘rinda shuni qayd qilish kerakki, Sadr Ziyoning o‘zi 1883-yildan 1920-yilgacha qozilik lavozimida ishlab kelgan. Sadriddin Ayniyning “Qisqacha tarjimai holim” biografik asarida esa Sadr Ziyonining qozilik faoliyati 1896-yildan boshlanganligi qayd qilinadi. [15.1t.56]. U qozilik mansabida ishlasa ham ilm-fanga qiziquvchi ko‘pgina yoshlarga homiylik qildi. O‘zi ham shu yillar orasida ko‘pgina asarlari yozganini ko‘ramiz.

Jumladan, uning ko‘zga ko‘ringan asarlari “Nafodiri ziyoiya”, “Ro‘znama”, “Tazkirat ul-xattotit”, “Tarix va tazokir ash’or” tazkiralardan iborat.

Qadimiy tazkira yozish an’anasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham davom etayotgan edi. Sadr Ziyo ham bu an’anani davom etdirib, 1905-1907-yillar orasida “Tazokiri – ash’or” tazkirasini yozganligi ma’lum. Mazkur tazkiraning boshqa tazkiralardan farqi shundaki, 49 ta shoirning hayoti va ijodidagi lavhalar she’riy yo‘l bilan bayon etiladi. Tazkira zamondosh adiblarga baғishlangan bo‘lib, Ahmad Donish, Vozeh, Shohin, Muztarib, Sadr Sarir, Iso Maxdum, Hayrat, Ayniy, Munzim, Hamdiylar haqida qimmatli ma’lumot beradi.

Sadr Ziyo shaxsining ulug‘ligi shundaki, u barcha voqeа - hodisalarga xolis yondashgan. Uning bu prinsipi tazkiralarda ham o‘z ifodasini topgan.

So‘zimizni muxtasar qilsak, XIII – XX asrning boshlarida o‘zbek va tojik tillarida yaratilgan ko‘pgina

tazkiralalar shoirlarga munosabat bildirishga bir-biridan farq qilsa ham, o‘zbek, tojik adabiy-tanqidiy qarashlari tarixini o‘rganish uchun asosiy manba bo‘lib qoladi.

Zero o‘tmishga qiziqish - insoniyatga qadimdan odat. Bugun va ertamizning mohiyatini anglash uchun ajdodlarimiz hayotini, tarixini bor teranligi va murakkabligi bilan biliшимиз zarur.

Bizning tadqiq obyektimiz hisoblangan S. Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” tazkirasi ham o‘tmish ajdodlarimiz qoldirgan merosni o‘rganish uchun muhim adabiy manbalardan sanaladi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Энциклопедия совети тожк. 5 жилд. Душанбе – 1980.
2. Энциклопедия совети тожк. 7 жилд. Душанбе – 1987.
3. “Намуний адабиёти тажик”. “Намуний адабиёти Ирон”. Москва.1926.
2. Энциклопедия адабиёти ва санъати тажик. Душанбе. 1982.
3. B. Valixo‘jayev, R. Vohidov. “Muhaqqiqi buzurgi du adabiyot”. Irfon.: Dushanbe – 1978-yil.
4. Amonov U. S., Eshonqulova M. Z. Buxoroning ikki farzandi haqida mulohazalar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7383200>
5. Amonov U. S. Turkiston o ‘lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs journali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 412-414.
6. Sadreddin Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. Moskva. 1926.
7. Незматулло Мухтарам. Тазкират ул-шуаройи Мухтарам. 1975.// Xo‘ja Ne’matulloh Muhtaram. Tazkirat ush-shuar. Nashriyoti “Donish”. – 1976. 214-219.
8. Садри Зиё. “Наводири Зиёя”. Душанбе. Нашриёти адиб. –1981.
9. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
10. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek’s interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
11. Amonov U. S. Folklore in the works of abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
12. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. “Academicia” An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249-7137.2020
13. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va “Buxoroyi sharif” ro‘znomasi. “Ta’lim va innovatsiyalar” journali №5. 2022-may. 62-68-betlar. <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448>.
14. Sultonovich, Amonov Ulug‘murod, and Sayidova Ziyna Yoqubovna. «Turkiston o ‘lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti.» Pedagogs journali 1.1 (2022): 412-414.
15. Amonov, Ulug‘Murod. «Sadreddin ainii is a connoisseur of tajik literature (as an example of a tajik work of exemplary literature).» International Journal of Advance Scientific Research 3.10 (2023): 142-146.
16. Yoqubovna, Sayidova Ziynat, and Amonov Ulug‘murod Sultonovich. «Chor rossiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston maktab va madrasalaridagi ijtimoiy-ma’naviy ahvol.» sustainability of education, socio-economic science theory 1.8 (2023): 22-25.
17. Sultonovich, Amonov Ulug‘murod, and Sayidova Ziyna Yoqubovna. «Turkiston o ‘lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti.» Pedagogs journali 1.1 (2022): 412-414.
18. Ulugmurod, Amonov Sultonovich. «Abdurauf fitrat is one of the earliest researchers of Uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 6. First page:(669) Last page:(673).» Online ISSN: 2249-7137.